Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321004

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Tavsiya etilgan strategik chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali mamlakat o‘z iqtisodiyotini nafaqat raqamli, balki innovatsion rivojlanish yo‘nalishida ham yangi bosqichga olib chiqishi mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori**: "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son qarori.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**: "O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot: muammolar va istiqbollar" hisobotlari. www.mitc.uz

3. Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. Crown Business.

4. OECD (2020). Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. Paris: OECD Publishing.

5. Mamasoatov, D. (2023). Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish strategiyalari.

6. UNCTAD (2022). Digital Economy Report 2024: Cross-Border Data Flows and Development. United Nations Conference on Trade and Development. unctad.org

7. **Jahon Banki hisobotlari**: O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi. www.worldbank.org

8. **Xitoyning raqamli iqtisodiyoti tajribasi**: "Alibaba Cloud Intelligence Report" (2021). www.alibabagroup.com

9. Tohidi, H., & Jabbari, M. M. (2012). ICT and its role in national development. Procedia Technology, 1, 503-507.

10. **O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi materiallari**: Innovatsion startaplar va raqamli infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash. www.mininnovation.uz

11. European Commission (2020). A Europe Fit for the Digital Age. ec.europa.eu

12. **Statista ma’lumotlari**: Jahonda raqamli iqtisodiyotning YaIMga qo‘shgan hissasi (2023). www.statista.com

13. Deloitte Insights (2023). Digital Economy Compass. Deloitte Global Services.

RAQOBATBARDOSHLIKNI TA’MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Bozorov Sardor Ulug‘bek o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti 4-bosqich talabasi
Nazarova Latofat Toirjon qizi
Farg‘ona politexnika instituti, “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
nazarovalatofat0108@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlash jihatlariga qaratilgan bo‘lib, raqamli texnologiyalarni zamonaviy jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan chora tadbirlar natijasida bugungi kunda erishilgan natijalari, raqamli iqtisodiyotning dunyo bo‘yicha ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga mamlakatda iqtisodiyotni raqamlashtirishni kuchaytirish bo‘yicha bir qator takliflar tavsiya etilgan.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Bozorov Sardor Ulug‘bek o‘g‘li, Nazarova Latofat Toirjon qizi (2024). Raqobatbardoshlikni ta’minlashda raqamli texnologiyalarning roli va ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321004

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, e-hukumat, Big date, IT park, robototexnika, mobil texnologiyalar.

Barchamizga ma’lumki hayotimizning har bir jabhasiga raqamli texnologiyalar joriy etilishi kun sayin ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar jamiyat hamda milliy iqtisodiyotga har tomonlama o‘z ta’sir o‘tkazadi, shu jumladan yangi aloqa va hamkorlik vositalari orqali xizmat ko‘rsatishning kuchli tarkibiy qismiga ega bo‘lgan raqobatbardosh yangi mahsulotlar ma’lumotlarning iqtisodiy o‘sish omili sifatida roli sun’iy intellect (AI) yordamida vazifalarni avtomatlashtirilishi hamda turli raqamli yangi biznes modellarining paydo bo‘lishi insoniyat hayotida tub burilishlar yasamoqda [3]. Shu sababli raqamlashtirish bizning hayotimiz va yashash tarzimizdagi qulayliklarni kengaytirib kelmoqda. Bu esa butun davlat rivojlanishi va jamiyat farovonligi demakdir.

O‘zbekistonda ham barcha tarmoqlarga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi yuz bermoqda. O‘zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4699-sonli qarorni imzoladi. Shuningdek, 2022-yilda barcha hududlarda raqamli savodxonlik o‘qitish markazlari ochilishi ham e’tiborga sazovordir [1]. 2023-yilda tasdiqlangan asosiy hujjatlardan biri O‘zbekiston prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2023−2024-yillarga mo‘ljallangan “Raqamli hukumat” va “Raqamli hudud” dasturlari doirasida 300 ta ustuvor loyihani amalga oshirish belgilab berildi. Bank, moliya, bojxona, qishloq xo‘jaligi, geologiya-kadastr kabi turli sohalarda 100 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy ta’minotlarning yaratilgani oldinga qo‘yilgan muhim qadamlardan bo‘ldi [2].

O‘tgan yili hududlarda aholining elektron xizmatlardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish maqsadida o‘tkazilgan o‘quv seminar va treninglarda jami 20 ming nafardan ortiq aholi, yoshlar va tadbirkorlik subyektlari o‘qitildi. Jumladan, “my.gov.uz — xizmatingizda” loyihasi doirasida IT Park`ning o‘quv markazlarida 13 ming nafardan ziyod rezident, 4000 nafar oliy o‘quv yurti talabalari va 3000 nafar yoshlar malaka oshirishdi. Bugun kunga kelib, respublikada elektron shaklda ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari ulushi 64 foizni tashkil etmoqda.

Erishilgan natijalar va yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga qaramay, hali ham hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qator vazifalar majud. Xususan, 2024-yilda 75 ming nafar maktab o‘quvchisining xalqaro IT bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitilishi ko‘zda tutilgan. Viloyat va shahar markazlari 5G tarmoqlari bilan qamrab olinadi. O‘zbekiston xorijiy va mahalliy IT-kompaniyalar tomonidan jahon sahnasida “Mintaqaviy IT hab” sifatida targ‘ib qilinadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish doirasida xorijiy va mahalliy kompaniyalar mutaxassislari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ommalashtirish, portaldagi xizmatlar sonini 700 taga yetkazish, davlat boshqaruvida 500 ta funksiyani raqamlashtirish kabi 100 ga yaqin tadbirlar ham mavjud. Yuqoridagi vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi O‘zbekistonning BMT tomonidan o‘tkaziluvchi elektron hukumat rivojlanishi reytingida kuchli 30 talikka kirishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli Farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” milliy strategiyasi tasdiqlanib, 2030-yilda raqamli iqtisodiyotning YAIM dagi ulushi 30 foizni tashkil etishi va unda raqamlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar hududlar kesimida yanada batafsil yoritilgan [2].

2024 yilda Raqamli iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizgacha oshishi, bulutli texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar

soni 85%, sun’iy intellekt – 86%, raqamli katta ma’lumotlar – 80 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin.:

1. Big Data texnologiyalari;
2. Internet ashyo texnologiyalari (IoT – Internet of Things);
3. Mobil texnologiyalar;
4. Bulutli texnologiyalar (Cloud computing);
5. Virtual va to‘ldirilgan texnologiyalar (VR – virtual reality) (AR – augmental reality);
6. Neyrotexnologiyalar va sun’iy intellekt (SI);
7. Robototexnika;
8. Blokcheyn va kriptovalyuta texnologiyalari.

Ushbu raqamli texnologiyalardan hozirgi kunda AQSH va Xitoy davlatlari foydalanishda dunyoda yetakchilik qilib kelmoqda. Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya davlatlari “raqamli” davlatlar sifatida tan olinmoqda.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy birdamlikka hissa qo‘shishi mumkin. Xorijiy tajribalarini o‘rganib, mamlakatimizda ham joriy etish chora tadbirlari boshqichma-boshqich amalga oshirish lozim. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning real sektorini raqamlashtirish mamlakat samaradorligini oshirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini anglash va uning global iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- aholining raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- raqamli iqtisodiyotda rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llab-quvvatlashning yanada keng qamrovli usullarini o‘rganish;
- mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish;
- raqamli iqtisodiyot uchun zarur infratuzilma tizimini yaratish

Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyot barcha sohalarda qo‘llanilsa, ochiq iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi yanada jaddallashib boradi. Shu bilan birga yashirin iqtisodiyotga barham beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4699-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 6079-sonli Farmoni.
3. DIGITAL ECONOMY REPORT 2019, VALUE CREATION AND CAPTURE: IMPLICATIONS FOR DEVELOPING COUNTRIES. United Nations Geneva, 2019.– P. 17.

Kurpayanidi, K. I. PROBLEMS OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INCREASING THE EXPORT POTENTIAL OF THE COUNTRY. Theoretical & Applied Science, (10), 2020